O‘QITUVCHI-TARBIYACHINING KREATIVLIK QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI

Xurilov O. O., Mirzaobod tumani
№31 maktab direktori

Annotaiya: Ushbu tezisda o‘qituvchini tarbiyachilik mahorati va kreativ qobiliyati xususiyatlari batafsil yoritlgan.

Kalit so‘zlar: tarbiyachi mahorati, an’anaviy, noan’anaviy, kreativ qobiliyat, rivojlantiruvchi, gnostik.

Abstract: This article describes in detail the characteristics of a teacher's pedagogical skills and creative abilities.

Key words: pedagogical skills, traditional, non-traditional, creative abilities, developmental, gnostiк.

Davr rivojlangan sari o‘qituvchining kasbiy faoliyatiga bo‘lgan talab shunchalik ortadi. Shunday ekan, mavzu oldida turgan maqsad yechimini “an’anaviy”, “noan’anaviy” va “zamonaviy” tushunchalarning pedagogik mohiyatini izohlashdan boshlash lozim bo‘ldi. Bu o‘rinda an’anaviy pedagogikani an’anaviy metod va usullarga asoslanib ish yuritishini ta’kiblash barobarida, “eski” va “yangi” o‘rtasida didaktik kurash ketishligini, eskining bag‘ridan yangini o‘sib chiqishini,

ya’ni an’anviy yondashuv o‘rnida tizimli ijodiy yondashuv rivoj topib kelayotgaligini ta’kidlab o‘tish joiz.

An’anviy yondashuvlar asosida o‘qituvchi shaxsining kasb faoliyati strukturasi muammosi bilan Rossiya olimlaridan N. V. Kuzmina, V. A. Slastyonin va A. I. O‘erbakovlar shug‘ullangan. Pedagog, o‘qituvchi- murabbiyning kasb faoliyati strukturasi ayni paytda pedagogik qobiliyatlar deb yuritildi [1,B.103-107]. Bular: tashkilotchilik,kommunikativ, perseptiv, informatsion, didaktik, yo‘naltiruvchi, safarbar etuvchi, rivojlantiruvchi, kreativ va gnostik (tadqiqotchilik)dan, iborat bo‘lib, I.P. podlasыy bu qobiliyatlarni o‘qituvchining kasb faoliyatiga qo‘yiladigan asosiy talablar deb hisoblaydi [2].

Ma’lumki, o‘qituvchi ayni paytda tarbiyachi hamdir. Kasbiy pedagogik faoliyatda o‘qituvchi va tarbiyachini ayricha olib qarash mumkin emas. Shunga ko‘ra biz ushbu tuzilmaga tarbiyachilikni kiritdik [1,B.103-104].

Bugungi kunda o‘qituvchi kasb faoliyati strukturasining xususiyatlarini o‘rganishda O‘zbekiston olimlaridan X. Ibragimov, M. Ochilov, N. Saidahmedov, O‘. Tolipov, N. Shodiev va boshqalarning ishlarini ko‘rib o‘tish mumkin.

Noan’anaviy yondashuv o‘quvchi-talabadagi erkinlik, ixtiyoriylikka asoslaniladi va vaqt me’yoridan chetga chiqish hollari ham kuzatiladi. Bunda o‘quvchi – talabalar yakka tartibda shug‘ullandimi yoki kichik guruhga bo‘lingan holda mashg‘ul bo‘lishadimi, joy va vaqt erkinligiga ko‘ra kutubxona, auditoriya, ma’naviyat xonasi, talabalar turar joyi, tabiat qo‘ynida yoki musiqa tinglagan holda kompyuterda ishlash orqali ijodiy faoliyat bilan shug‘ullanishi mumkin. Hatto bu jarayonda o‘quvchi-talaba nafaqat stol-stul atrofida, balki divanda o‘tirib, cho‘zilib yotgan holda, uyda, hovli bog‘ida o‘qib o‘rganishi, ko‘zi bilan ko‘rib amalga tatbiq etishi mumkin.

Yuqorida biz an’anaviy va noan’anaviy yondashuvlarda yangilikka intilish, ijodiy izlanuvchanlik va shu bilan birga tadqiqotchilik, pedagogik qobiliyat ko‘rinishida zohir etilishini ko‘rib o‘tdik. Demak, an’anaviy pedagogikada o‘qituvchining kreativlik qobiliyatiga e’tibor berilgan. O‘quvchi-talaba o‘qituvchining ko‘rsatmasidan tashqariga chiqa olmagan. ”Men ko‘rsatgandek bajar”, “Men aytganimdek bo‘lishi lozim” shiori ustuvorlik qilgan. O‘zaro munosabatlar doirasi “sub’ekt-ob’ekt” darajasida bo‘lgan. O‘quvchi-talabaning mustaqil fikrini rivojlantirishga har doim ham e’tibor qaratilmagan.

Ko‘rinib turibdiki, milliy tafakkur salohiyatiga ega bo‘lgan iste’dodli yoshlarni tarbiyalashda o‘qituvchining o‘zi mukammal kreativlik qobiliyatiga ega bo‘lishi lozim. Amerikalik psixolog Abraham Maslouning ta’kidlashicha shaxsning kreativlik qobiliyati qulay muhit va tarbya asosida shakllanadi. O‘quvchiga berilgan bilim va ko‘nikmalar har doim o‘qituvchining ijodkorlik qobiliyati asosida takomillashib bormog‘i lozimligi ham alohida uqtirilgan.

Shuningdek pedagog olim Andrey Aleynikovning ko‘rsatishicha, o‘qituvchi o‘quvchi-talaba munosabati “sub’ekt-sub’ekt” munosabatlariga asoslanilgandagina ijodiy yondashuv va o‘zaro hamjihatlik namunalari qaror topadi. Munosabatlar doirasida “guruhli tafakkur” vujudga keladi.

Bu o‘rinda o‘qituvchiga xos ijodkorlik, yaratuvchanlik kasbiy xotira bilan bevosita bog‘liq. Kasbiy xotiraning negzida fan predmeti uning asosiy tushunchalari,

atamalar, izohlar, fanning tarixiy kelib chiqishi, fanlar tizimida tutgan o‘rni, egallangan kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarning dinamik streotipiga aylanishi, fan istiqbolini belgilovchi tizimli va innovatsion ijodiy yondashuvlarni chuqur bilish hamda tatbiq etish turadi.

O‘qituvchi-tarbiyachining kreativlik qobiliyatini rivojlanishida: fanning so‘ngi yutuqlarini bilish va tatbiq etish; yangi atamalarning ma’no – mazmunini atroflicha o‘rganish va tahlil qilish; mashhur olimlarning ilmiy-ijodiy faoliyatini o‘rganib borish; kreativ xarakterdagi testlar, masala va mashqlarni yechish; ta’limning rivojlantiruvchi funksiyasidan kelib chiqib, global ta’lim mohiyatini tahlil etishhamda kasbiy pedagogik faoliyatda aqliy hujum, keys-stadi, skveyn, shaxsiy fikr va boshqa ko‘plab interfaol metodlardan unumli foydalanish. Interfaol metodlarni dars jarayonida qo‘llash, kasbiy qobiliyat mazmunida kreativ qobiliyatni takomillashuviga olib keladi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish lozimki, o‘qituvchi-tarbiyachining kreativlik qobiliyati ijodkorlik va bunyodkorlik muhitini yaratib, ta’lim-tarbiya samaradorligini (mahsuldorligini) oshirishga qaratilgan. Kreativlik mukammallikni, ya’ni mukammallikka intilishni taqozo etadi. Ammo ijodiy faoliyatga xos mukammallik cheksiz hodisadir. Unga erishish o‘z – o‘zidan bo‘lmaydi. Buning uchun o‘quvchi-talabani ijodiy muhitga olib kirish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Abdukarimov H.Kasbiy pedagogik faoliyat.-T.:O‘qituvchi, 2010.-160b.
2.Podlasыy I.P. Pedagogika.-M.:Vыsshee obrazovanie, 2007.-540s.